

## “HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH USLUBIYOTI

**Boymirzaev Abdusattor Egamshukurovich**  
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi  
Fuqaro muhofazasi instituti kafedra dotsenti

**Razzaqov Hasanboy Mirzaevich**  
Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi FVDTVaFM  
tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

**Annotatsiya:** Bugungi kunda “Hayot xavfsizligi asoslari” sohasida ham innovatsion yondashuv asosida ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi yoki bosqichdagi o‘quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat uchun o‘qituvchilar tayyorlash sohasida bir qancha ishlar olib borilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** interfaol, texnologiya, innovatsiya, ta’lim, Yelpig‘ich, Klastr

**Abstract:** Today, in the field of "Basics of Life Safety", various scientific researches on the development of the educational system based on an innovative approach, innovative management of educational processes at different levels or stages, and a number of works are carried out in the field of training teachers for innovative activities. is going

**Keywords:** interactive, technology, innovation, education, fan, cluster

**Аннотация:** Сегодня в области «Основы безопасности жизнедеятельности» проводятся различные научные исследования по развитию системы образования на основе инновационного подхода, инновационного управления образовательными процессами на разных уровнях или этапах, а также ряд работ. в области подготовки учителей к инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** интерактив, технологии, инновации, образование, фанат, кластер.

Xavfsizlik masalalarini hal qilish inson omilini inobatga olinmasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Shu bois, har bir insonning xavfsiz xatti-harakati va tayyorgarlik darajasini rivojlantirish favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishning hal qiluvchi omillari hisoblanadi. Shuningdek, inson hayot xavfsizligini ta’minlash jarayonida inson omilini inobatga olmagan holda, aholining bilim va malakasini shakllantirishga erishish mumkin emas [1]. Oliy ta’lim tizimida talabalarni soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash uslubiyotini takomillashtirish uchun:

-soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishning nazariy va metodologik asoslarini umumlashtirish va tizimlashtirish;

-ta’limning interfaol usullari, texnologiyalari va shakllarini aniqlashtirish;

-soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda interfaol usullar, texnologiyalar va shakllardan foydalanish samaradorligini aniqlash;

-soha yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammo ekanligini ko‘rish kerak.

Hozirgi pedagogik amaliyotida ta‘lim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi e‘tirof etiladi. Ushbu ta‘lim metodlarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Metod iborasi (yunoncha-methodos-tadqiqot yoki bilish yo‘li, nazariya, ta‘limot ma‘nosini anglatib) voqelikni bilish, o‘zlashtirish, o‘zgartirish usullari majmuasidir [2].

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta‘lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirgan, bu axborotlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada oliy ta‘limida innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir [4].

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta‘limda boshqaruv rolini o‘qituvchi bajaradi.

Interfaol usullariga “Seminar musobaqa” texnologiyasi, “Tanishuv” texnologiyasi, “Zinama-zina” texnologiyasi, “Aqliy hujum” texnologiyasi, “Charxpalak” texnologiyasi, “Klastr” texnologiyasi, “Bumerang” texnologiyasi, “3x4” texnologiyasi, “Rezyume” texnologiyasi, “Muammo” texnologiyasi, “Labirint” texnologiyasi, “Blits-so‘rov” texnologiyasi, “FSMU” texnologiyasi, “Skarabey” texnologiyasi, “Yelpig‘ich” texnologiyasi, “Muloqot” texnologiyasi, “Bahslashuv” texnologiyasi, “Ssenariy” texnologiyasi va boshqalar kirad [10].

Masalan “Seminar musobaqa” texnologiyasi darslarini tashkil etish ko‘p yildan beri ta‘limda keng qo‘llanilib kelinadi. Bu usul talabalarning qiziqishini va aktivligini oshiradi. Bu usulga tayyorgarlik ko‘rish uchun talabalar oldindan ogohlantiriladi va mavzu e‘lon qilinadi. Talabalar guruhi ikki kichik guruhchalarga bo‘linadi. Ularning har biri mavzu bo‘yicha savollar tayyorlab kelishi lozim. Seminar boshida talabalar musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas, balki savollarni to‘g‘ri va aniqligi uchun, qo‘shimcha va tuzatishlar uchun ham ma‘lum ballar belgilanadi. Guruh talabalarining barchasi faol qatnashishlari uchun esa minus ballar ham ko‘rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto‘g‘ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to‘plangan ballar yozib borilishi mumkin. Seminar oxirida g‘olib guruh qatnashchilari qo‘shimcha ballar bilan rag‘batlanishi mumkin. Pedagog ta‘lim jarayonini boshqaruvichi sifatida juda hushyor va sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir talabaga baho qo‘yib borishi lozim. Bu usul bilimlarni yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatini oshishiga, savollarni to‘g‘ri tuzilishiga, o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatadi. Eng muhimi esa talabalarda mustaqil bilimlarni egallash, yangiliklarni qidirish, mavzuga ijodiy yondashish xususiyatlari oshadi. O‘rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog‘lanadi. Bunday innovatsion texnologiyaning dastlabki ko‘rinishlari oliygohlarda qo‘llanilsa yuqori natijalarga erishsa bo‘ladi.

Kichik guruhchalar usuli. Bu usulda guruh talabalari bir necha guruhga bo‘linadi, har bir guruhda 4-5 tadan talaba bo‘lishi mumkin. Har bir guruhning rahbari tayinlanadi. Ularga oldindan vazifa beriladi. Guruh talabalari seminarga birgalikda tayyorlanib o‘z savollarini

to‘liq ochib berishga harakat qilishlari kerak. Boshqa guruhlar asosiy ma’ruzachiga savollar beradilar, savollarga guruhning talabalari javob berishda yordam beradilar. Asosiy ma’ruzachi himoyasidan so‘ng opponentlar savolni yanada to‘liqroq izohlab berishlari kerak. Uchinchi va to‘rtinchi guruh talabalari o‘zlarini fikrlarini bildirgach, tadqiqot olib borgan guruhga baho qo‘yib, izoh berishlari kerak. Bunday usulda ish olib borish uchun guruhlarni tuzishda talabalarining bilimi teng bo‘lishiga harakat qilish kerak. Guruhni boshqarishda yaxshi o‘zlashtiruvchi talabalarni tanlash lozim. Bunday innovatsion texnologiyaga oid bellashuvlar tugagach, bo‘lim yuzasidan boshqa turli musobaqalar o‘tkazish mumkin.

“Blis so‘rov” texnologiyasi. Ushbu texnologiya orqali amalga oshiriladigan muayyan bir harakatlar, tadbirlar va qoidalar ketma-ketligi bo‘yicha talabalar olgan nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazish hamda amaliy jihatdan mustahkamlash mumkin. Uslubni afzallik tomonlaridan biri bir vaqtda talabalarda yakka va guruhlar shaklida qo‘llaniladi. Uslubiy qo‘llanmani tuzuvchilar tomonidan o‘tkazilgan mashg‘ulotlar jarayonida ushbu uslub qo‘llanilganda yakka tartibda berilgan javoblarga nisbatan guruh tarkibida berilgan javoblar bahosi yuqoriligi kuzatildi. Bu o‘z navbatida talabalarining guruh bo‘lib ishlashda mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini amaliy qo‘llashiga, to‘g‘ri javobni tanlash jarayonidagi bahs-munozaralari natijasida bilimlari yanada mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi. Texnologiyaning maqsadi: ushbu texnologiya orqali talabalarda tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma – ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini bashqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan xamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakillantirishdir.

Texnologiyaning qo‘llanilishi: o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida muayyan bir xarakterlik tartibini talabalar bilishini aniqlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki turli nazorat sinovlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiya mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin. Shuningdek, talabalarni biror bir jarayonning qat‘iy bajariladigan ketma-ketlikdagi tartibiga rioya qilishlariga o‘rgatishda ham qulay sanaladi [3].

Hayotiy faoliyat xavfsizligi metodologiyasi – real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy, ekologik vaziyatdan kelib chiqqan tarzda minitexnotizimlarda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy holat, jarayon va hodisalarni ilmiy bilishga qaratilgan metodlarni tanlash va tizimlashtirish.

Ko‘pgina ilmiy-tadqiqotlarda bu masalalar atroflicha o‘rganilgan jumladan, K.Davlatov, P.T.Magzumov, N.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, M.O.Ochilov, N.S.Sayida’medov, O‘.Q.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, E.T.Choriyev, N.Shodiyev, O.Hayitov va boshqalar tomonidan yoshlarni kasbga yo‘naltirish, kadrlar tayyorlash, bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy pedagog faoliyatining turli sohalari, jumladan, talabalar ijodiy faoliyatini samarali boshqarish muammolari yoritilib berilgan, Hayot faoliyati xavfsizligiga oid mashg‘ulotlarni tashkil etish umumiy masalalari ko‘rib chiqilgan. Pedagog-tadqiqotchilardan V.YE.Alekseyev, P.N.Anlirianov, V.M.Aridin, I.I.Baka, V.A.Gorskiy, A.N.Gomozov, D.P.Yelnikov, I.F.Karpenko, V.I.Kachnev, D.M.Komskiy, V.I.Ovsiyannik, V.D.Putilin, Y.S. Stolyarov, Sh.S.Sharipov, O.Eshonov, A.Xudoberganov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘quvchilarning ijodkorlik faoliyatini tashkil etishga oid qimmatli fikrlar mavjud. Psixolog – tadqiqotchilardan S.M.Vasileyskiy, M.T.Davletshin, T.V.Kudryatsev, I.T.Romanyuk, E.A.Faraponova, V.V.Chebisheva, I.S.Yakimanskaya, P.M.Yakobson, E.G‘oziyev va boshqalar tomonidan o‘quvchilarning texnik tafakkuriga oid

masalalar, shuningdek, N.Anisimov, V.S.Kuzin, B.Boymatov, S.Bulatov, Q.Qosimov, R.Hasanov kabi tadqiqotchi-olimlarimiz tomonidan o’quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash masalalari o’rganilgan [8,9].

Bugungi kunda “Hayot xavfsizligi asoslari” sohasida ham innovatsion yondashuv asosida ta’lim tizimini rivojlantirish bo’yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi yoki bosqichdagi o’quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat uchun o’qituvchilar tayyorlash sohasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim berishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o’quv-uslubiy majmualarini yaratish va o’quv – tajriba jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash ta’lim sohasining asosiy belgilangan vazifalaridan biridir. Ta’limni tizimini amalga oshirishda uning uzluksizligini ta’minlash va ta’lim mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko’zda tutadi.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Александрова О.Б., Дрожжин М.А., Моисейкин Д.А. Теория и практика как взаимосвязанные категории в освоении дисциплины «Безопасность жизнедеятельности». Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология. – Сборник научных трудов: - Ялта: РИО ГПА, 2019. – Вып. 65. – Ч.4. – С 13-16.

2. Ishmuhamedov R., Yuldoshev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o’qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o’quv qo’llanma). Toshkent 2003 yil, 3-b.

3. Карпиевич Виктор Александрович, Кулик Андрей Николаевич, «Возможности использования интерактивных методов в комплексном подходе к обучению основам безопасности жизнедеятельности» Инновационные образовательные технологии. - 2015. - №2(42)

4. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq-ta’limi xodimlari uchun o’quv qo’llanma). Tuzuvchilar: J.V.Yo’ldoshev, S.A.Usmonov. www.ziyouz.com kutubxonasi. 2016. 7-b.

5. Sulaymonov S.S. “Hayot faoliyati xavfsizligi yo’nalishida talabalarni zamonaviy talab darajasida o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari”/ “Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta’minlashda innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar”. II-respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumani materiallar to’plami. O’zbekiston respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. T.: 2020.75-78 b.

6. Tojiev, M. X. Ne’matov, I. Ilxamov, M. X. “Xayot faoliyati xavfsizligi” ma’ruzalar matni to’plami. T.:2009. 159-b.

7. Ta’limning interfaol metodlari <http://www.hozir.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi-ajiniyoz-nomidag-v5.html?page=10>

8. Xusanova S., Nazarova N.N. “Oliy o’quv yurtlarida “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish yo’llari”/ “Fan, muhofaza, xavfsizlik” Ilmiy amaliy jurnali 2 (3)-son. T.: 2019. 23-24 b.

9. Шипов А.К. Использование интерактивных методов обучения на занятиях ОБЖ.М.: С.146.

10. O’zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. “Innovatsion faoliyat va ilg’or pedagogik texnologiyalar” bo’yicha O’quv qo’llanma. Tuzuvchilar: Ahmadaliyev A.M. prof., Qosimov A. X. 42-46 b.